

IKKI TILLI O'QUV LUG'ATLARDA ONOMASTIK BIRLIKLARNI SEMANTIZATSIYALASH

Nashirova Shaxnoza Buriyevna,

Qarshi davlat universiteti, Xorijiy tillar fakulteti, PhD, dotsent

E-mail: shakhnozka08@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola o'quv leksikografiyasining murakkab qismlaridan biri — ikki tilli lug'atlarda onomastik birliklarni semantizatsiyalash (ma'nosini ochib berish) muammolariga bag'ishlangan. Onomastik birliklar, xususan antroponimlar, toponimlar va etnonimlar tilda nafaqat nominativ vazifani bajaradi, balki o'zida chuqur milliy-madaniy konnotatsiyalarni jamlaydi. Tadqiqotda mazkur birliklarning ikki tilli o'quv lug'atlarida berilish usullari, ularning lingvokulturologik xususiyatlarini saqlab qolgan holda boshqa til vakiliga yetkazish masalalari tahlil qilinadi. Maqolada onomastik birliklarni semantizatsiyalashda qo'llaniladigan asosiy usullar — transliteratsiya, transkripsiya va tavsifiy izohlar berishning afzallik hamda kamchiliklari qiyosiy o'rganilgan.

Tayanch so'zlar: onomastika, semantizatsiya, o'quv leksikografiyasi, lingvokulturologiya, antroponim, toponim, lug'at maqolasi, madaniy fon.

Abstract. This article is devoted to one of the complex parts of educational lexicography - the problems of semantization (disclosure of meaning) of onomastic units in bilingual dictionaries. Onomastic units, in particular anthroponyms, toponyms and ethnonyms, perform not only a nominative function in the language, but also contain deep national and cultural connotations. The study analyzes the methods of rendering these units in bilingual educational dictionaries, the issues of conveying them to a representative of another language while preserving their linguocultural characteristics. The article comparatively studies the advantages and disadvantages of the main methods used in the semantization of onomastic units - transliteration, transcription and descriptive annotations.

Keywords: onomastics, semantization, educational lexicography, linguoculturalology, anthroponym, toponym, dictionary article, cultural background.

Аннотация. Данная статья посвящена одной из сложных частей образовательной лексикографии – проблемам семантизации (раскрытия значения) ономастических единиц в двуязычных словарях. Ономастические единицы, в частности антропонимы, топонимы и этнонимы, выполняют в языке не только номинативную функцию, но и содержат глубокие национальные и культурные коннотации. В исследовании анализируются методы представления этих единиц в двуязычных образовательных словарях, вопросы их передачи представителю другого языка при сохранении их лингвокультурных характеристик. В статье сравнительно изучаются преимущества и недостатки основных методов, используемых при семантизации ономастических единиц – транслитерации, транскрипции и описательных аннотаций.

Ключевые слова: ономастика, семантизация, образовательная лексикография, лингвокультурология, антропоним, топоним, словарная статья, культурный контекст.

Kirish. Ikki tilli o'quv lug'atlari til o'rganuvchilar uchun eng muhim manbalardan biri bo'lib, ular nafaqat so'zlarning tarjimasini, balki ular bilan bog'liq madaniy, tarixiy va funksional ma'lumotlarni ham taqdim etishi zarur [1, 160 bet]. Lug'atlar tarkibida uchraydigan onomastik birliklar — shaxs nomlari, geografik obyektlar, tarixiy nomlar, etnonimlar, toponimlar va boshqa atoqli otlar — tarjimada alohida yondashuvni talab qiladi. Chunki bunday birliklar, ko'pincha, lisoniy emas, balki madaniy kod bilan bog'langan [3,192 bet].

Onomastik birliklar nominativ funksiyaga ega bo‘lib, ular real obyektlarni belgilaydi. Til o‘rganuvchi uchun atoqli otlarning to‘g‘ri anglanishi ushbu obyektlar haqidagi bilimning to‘g‘riligiga bog‘liq. Shu sababli o‘quv lug‘atlarida ularning:

denotativ ma‘nosi,

geografik yoki tarixiy mohiyati,

madaniy konnotatsiyasi,

talaffuzi va yozilish variantlari aniq berilishi muhimdir.

Adabiyotlar tahlili. Tildagi atoqli nom (ot)larning xilma-xil xususiyatlari juda qadimgi davrlardan buyon turli soha olimlarining diqqatini o‘ziga jalb etib kelmoqda. Masalan, qadimgi yunon olimlari Aristotel, Demokrit, Geraklitning asarlarida ham atoqli otlarning xususiyatlari haqida fikr-mulohazalar bildirilgan edi. Jumladan, Aristotel “Poetika” asarida otni nutq bo‘laklaridan biri deb hisoblaydi va unga quyidagicha ta‘rif beradi [5, 256 bet]: “Ot murakkab, ma‘no anglatuvchi, zamonni bildirmaydigan, qismlari o‘z-o‘zidan ma‘no anglatmaydigan so‘zdir”.

Eramizgacha 1-asrda yashagan Yuliy Polluks “Onomastik” nomli atoqli otlarga izoh beruvchi lug‘at yaratgan [4, 156 bet]. Stoiklar, jumladan Xrisipp atoqli otlarni alohida til birligi, so‘zlar guruhi deb tasnif qilgan edi. Uyg‘onish davrida va o‘rta asrlarda (T.Gobbs, Dj.Lokk, G.Leybnis) hamda butun XIX asr davomida (Dj.Mill, X.Djozef va boshqalar) atoqli otlar, ularning til lug‘aviy qatlamidagi o‘rni masalasiga doir munozara davom etdi. Bu sohada eng muxim masala atoqli otlar qanday ma‘no bildirishini aniqlashdan iborat edi. XVIII-XIX asrlar davomida bu muammo faqat tilshunoslar tomonidan emas, faylasuflar, mantiq olimlari tomonidan ham o‘rganilgan. Bu muammoni o‘rganishga yirik ingliz mantiqshunos olimi Djon Styuart Mill (1806-1873) juda ko‘p kuch sarfladi. Uning talqinicha, atoqli otlar ma‘no bildirmaydi, ular o‘ziga xos belgilar, yorliqlar sifatida predmetni bilishga, uni boshqa predmetlardan farqlashga yordam beradi [2, 124 bet]. Biror predmet, kishining nomi (atoqli ot) o‘sha predmet yoki shaxs tavsifi uchun to‘la asos bo‘lolmaydi. O‘z fikrlarini rivojlantirib, Dj.Mill so‘zlarni ikki guruhga ajratadi: a) so‘z-belgilar, b) xarakterlovchi (konnotatsiyalovchi) so‘zlar. Konnotatsiyalovchi so‘zlar atoqli otlardan keyin vujudga kelgan.

Yana bir ingliz mantiqshunosi X.Djozef atoqli otlar haqida Dj.Millga qarama-qarshi fikrlarni bildirgan edi. Uning fikricha atoqli otlar turdosh otlarga nisbatan kengroq va ko‘proq ma‘noga egadir. Masalan, “*Palikur* (kishi ismi, afsonaviy Eneyning hamrohi, yo‘ldoshi) *e‘tibordan chetda qoldi*” gapi “*Inson e‘tibordan chetda qoldi*” gapidan ancha mazmunliroqdir.

XX asrda atoqli otlar haqidagi mantiqiy yo‘nalishni mashhur ingliz faylasufi va mantiqshunosi Bertran Rassel (1872-1970) yanada rivojlantirdi. Uning fikricha, ma‘lum makonda va zamonda atoqli otlar yordamida ifodalanuvchi ma‘no turdosh otlarga nisbatan aniqroq, ilmiyroq xarakterga egadir. Bu jihatdan atoqli otlar *bu, o‘sha, ana shu, ana bu* singari ko‘rsatish olmoshlariga juda yaqin turadi.

Daniya tilshunosi Paul Kristofersen atoqli otlar bilan turdosh otlar orasidagi farqni ularning birinchisi aniq, konkret ma'noni, keyingisi esa mavhum ma'noni ifodalashida ko'radi. Atoqli otlar individning, shaxsning bevosita ismi, nomi bo'lsa, turdosh otlar bilvosita nomlardir. Turdosh otlar dastlab butun bir guruh, to'lda nomini bildiradi, keyinchalik bu nom konkretlashadi [6, 210 bet].

Ingliz tilshunosi Alan Gardinerning "Atoqli otlar nazariyasi" (1954) nomli asari onomastika fanini yangi bosqichga ko'tardi. Dj.Millning atoqli otlarni ma'no yo'qligi haqidagi fikrini rivojlantirib A.Gardiner atoqli otlar o'ziga xos nomlar bo'lib, predmet, voqea-hodisa haqida aniq, konkret tasavvurlar yig'indisini o'zida ifoda etadi. Bu jihatdan atoqli otlar ikki bo'linadi: a) mujassamlanuvchi, timsol bo'la oluvchi (воплощенный) atoqli otlar va b) mujassamlanmovchi, timsol bo'la olmovchi atoqli otlar. Masalan, *Vilyam Shekspir*, *Temza daryosi* kabi atoqli otlar mujassamlanuvchi atoqli otlar guruhiga kiradi, chunki ular ma'lum bir shaxs (bu o'rinda buyuk dramaturg) va geografik obyekt (bu o'rinda daryo) haqida umumiy, yaxlit tasavvur beradi. Agar biz oddiygina qilib Vilyam desak, bu mujassamlanmovchi, kishi ismi haqida umumiy tasavvur beruvchi atoqli otni bildiradi.

Metod va metodika. Ushbu tadqiqotni shakllantirishda qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-chog'ishtirma metodlariga murojaat qilindi.

O'quv lug'atlarining asosiy vazifasi — til o'rganuvchiga nafaqat tarjima, balki tushuncha mazmunini soddalashtirib, madaniy kontekstdan ajratmagan holda yetkazish hisoblanganligi sababli bu vazifaning amalgam oshishi ayniqsa onomastik birliklar uchun nihoyatda muhim va dolzarb masala sanaladi.

Tilning leksik boyligi konkret lug'aviy birliklar (leksemalar)dan iborat bo'lganidek, tilning onomastik fondini leksika doirasida mujassamlashuvchi konkret atoqli otlar tashkil qiladi. Ushbu konkret nomlar onomastikada "til birliklari", "leksik birliklar", "nutq birliklari" deb yuritiluvchi terminlarga o'xshatma (taqlidiy) tarzda **onomastik birliklar** deb yuritilmoqda. Onomastik birlik deyilganda, aslida konkret atoqli ot ko'zda tutiladi.

Atoqli otlarga lingvistik lug'atlarda doimo ham yetarli darajada e'tibor berilmagan — na ikki tilli lug'atlarda, na bir tilli lug'atlarda. Xususan, rus leksikografiyasida atoqli otlar, odatda, izohli lug'atlarning lug'at tarkibiga kiritilmaydi (faqat ayrim hollarda apellyativlashgan mifologik va folklor atoqli otlar bundan mustasno).

Apellyativlashgan ya'ni atoqli otlikdan umumiy ot yoki sifatga aylangan mifologik va folklor nomlar vaqt o'tishi bilan xarakter, tashqi ko'rinish yoki xulq-atvorni ifodalovchi umumiy nom sifatida tilga singib ketgan.

Keling, ana shu kabi atoqli otlarga misollar keltiraylik:

Hercules --- gerkules

Ma'nosi: juda kuchli odam

He is a real Hercules. —U haqiqiy gerkules

Don Juan --- donjuan

Ma`nosi: ayollarni ko'p yo'ldan uruvchi erkak.

He is known as a Don Juan.

Narcissus --- narsis

Ma`nosi: o'ziga oshiq, xudbin kishi

A narcissist personality

Siren --- sirena

Ma`nosi: sehrli, o'ziga tortuvchi ayol ovozi

A siren voice

Odatda, o'quvchilar ensiklopedik xususiyatga ega bo'lgan ma'lumotnomalarga yo'naltiriladi. Bu amaliyot atoqli otlar faqat ensiklopedik ma'noga ega birliklar sifatida talqin qilinishiga asoslanadi. Garchi bugungi kunda bunday yondashuv barcha tadqiqotchilar tomonidan birdek qo'llab-quvvatlanmasa-da, leksikografiyada u hanuzgacha kuchli inersiyani saqlab kelmoqda.

Ingliz tilidagi izohli leksikografiyada ikki an'ana mavjud. Ulardan biri Buyuk Britaniya leksikografiyasiga xos bo'lib (Longman, Collins, Oxford nashriyotlari lug'atlari), Rossiya an'anasiga o'xshash tarzda, atoqli otlarni aksariyat lingvistik lug'atlardan chiqarib tashlaydi.

Ikkinchi leksikografik an'ana esa asosan AQSh [8,144 bet]da rivojlangan (Merriam-Webster, Random House, American Heritage va boshqalar) bo'lib, foydalanuvchilarning amaliy ehtiyojlarini birinchi o'ringa qo'ygan holda atoqli otlarni lingvistik lug'atlarga kiritadi. Shu bilan birga, bu yondashuv bilvosita tarzda atoqli otlarning lingvistik ma'noga ega ekanligini ham tan oladi. Ushbu lug'atlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, lug'at tarkibiga biz yakka (individual) toifaga kiritadigan atoqli otlar kiritiladi. Mazkur termin onomastikada ma'lum darajada qo'llanib kelayotgan bo'lsa-da, u turlicha talqin qilinishi mumkin. Shu bois uni izohlab o'tamiz.

Umuman olganda, atoqli otlarning ham referensiyasi, ham ma'nosi (ya'ni nom bilan bog'liq deskriptiv belgilar majmui) vaziyatdan vaziyatga va bir kommunikativ sohadan boshqasiga qarab o'zgarib borishi mumkin. Til tashuvchilarining keng auditoriyasiga mo'ljallangan matnlarda bunday deskriptiv belgilarni ochiq va aniq tarzda bayon etish zarur bo'ladi.

Yakka atoqli otlarda mumkin bo'lgan referensiyalardan kamida bittasi butun til tashuvchilar jamoasiga shartli ravishda teng bo'lgan kommunikativ sohada amalga oshadi va ularning ma'nosi til birliklari maqomiga ega bo'ladi. Buni rus tilidagi bir misol orqali ko'rsatamiz. Aktrisa R. Zelyonaya[7,124 bet]ning xotiralarida u 1920-yillarda kichik bir teatrdan ishlagan davrini eslab o'tadi:

1) Yermolovich Dmitriy Ivanovich — filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Moskva davlat lingvistika universiteti tarjima kafedrasida professori.

2) «...badiiy kengash tarkibiga, shuningdek, Vera Inber ham kirardi — u allaqachon o‘sha paytda Vera Inber edi, E. A. Levinson, A. N. Frumkin — kelajakdagi akademik, butun dunyoga mashhur kimyogar».

Bir qarashda paradoksal tuyuladigan «Vera Inber, u allaqachon o‘sha paytda Vera Inber edi» degan jumla yakka ismning shakllanish jarayonini juda yaqqol tasvirlaydi. Tarixiy jihatdan atoqli ot darhol yakka ism maqomini kasb etmaydi. Muallif XX asr oxiridagi o‘quvchiga murojaat qilar ekan, XX asrning 20-yillaridayoq shoir Vera Inber keng e‘tirofga sazovor bo‘lganini ta’kidlashni istaydi. Lingvistik terminlar bilan aytganda, hikoya qilinayotgan davrda Vera Inber atoqli oti alohida nutqiy kontekst va vaziyatlarda emas, balki umumtil doirasidagi qo‘llanishda barqaror individual referensiyaga ega bo‘lgan.

Xulosa. Inglizcha-o‘zbekcha yoki o‘zbekcha-inglizcha shaklidagi onomastik birliklarning lug‘ati aynan mavjud emas. Bu ikki til asosidagi onomastik birliklar tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy ishlar uchun ushbu har ikki tildagi alohida izohli lug‘atlargina manbaa sifatida xizmat qiladi. Shu sabab ikki tildagi onomastik birliklar lug‘atlarini tuzish bugungi tilshunolar, tarjimashunoslar va leksikograflarning oldidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдуллаев Р. Ўзбек қишлоқ ва шаҳар номлари: этимологик луғат. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 160 б.
2. Давронов А. Тарихий шахслар ва уларнинг лақаблар луғати. – Тошкент: Фан, 2003. – 124 б.
3. Исломов Б. Ўзбек шахс исмлари ва уларнинг маъноси. – Тошкент: Шарқ, 1995. – 192 б.
4. Қодиров С., Турсунов М. Шахс ва лақаблар изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 2001. – 156 б.
5. Ўзбек шахс исмлари изоҳли луғати / Тўпловчилар: Э. Бегматов ва бошқ.; Таҳрир ҳайъати: Н. Маҳмудов ва бошқ. – Тошкент: Фан, 1990. – 256 б.
6. Ўзбекистон географик ва топонимик номлари луғати / Масъул муҳаррир: А. Раҳимов. – Тошкент: Фан, 2010. – 210 б.
7. Ўзбекистон тарихий ва маданий объектлари номлари луғати / ЎзР ФА Тил ва адабиёт институти. – Тошкент: Фан, 2005. – 184 б.
8. Ўзбекистон шаҳар ва қишлоқлари номлари луғати / Тузувчилар: С. Қораев ва бошқ. – Тошкент: Фан, 1980. – 144 б.